

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida
“Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasi
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024** yil **15** apreldagi **PQ-157-son** “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

Qarz bitimi: **2023** yil **29** dekabrda imzolangan. Amal qilish muddati: **2032** yil **25** aprelga qadar.

Moliyalashtirish shartlari:

Kredit shartnomasi: Loan **4426**-UZB (imtiyozli); kredit miqdori: **240 mln dollar**; kredit muddati: **24** yil; imtiyozli davr: **5** yil; foiz stavkasi: **2%** yillik.

Kredit qiymati: **240** mln doll.

Amalga oshirish muddati: **2024–2032** yy.

Loyiha quvvati: **841** km.

Loyiha hududi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 ta viloyat.

Loyihaning umumiy qiymati va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimoti:

Loyihaning umumiy qiymati **304,9 mln dollarni** tashkil qiladi, shundan Osiyo taraqqiyoti banki ulushi – **240,0 mln dollar**, O‘zbekiston Respublikasining ulushi – **64,9 mln dollar**.

Amalga oshiriladigan ishlar: Jami bo‘lib **841 km** (2-bosqichda **150** km hamda uchinchi bosqichda **691** km) uzunlikdagi sementbeton qoplamali mahalliy va ichki yo‘llar quriladi, shundan: Sirdaryo viloyati (67 km), Jizzax viloyati (83 km), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (62 km), Xorazm viloyati (67 km), Buxoro viloyati (61 km), Navoiy viloyati (61 km), Samarqand viloyati (60 km), Qashqadaryo viloyati (61 km), Surxondaryo viloyati (65 km), Toshkent viloyati (59 km), Farg‘ona viloyati (62 km), Namangan viloyati (62 km), Andijon viloyati (71 km),

Tayyorgarlik ishlari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **15.04.2024** yildagi **PQ-157-son** “qarori bilan loyihaning texnik-iqtisodiy asosi (TIA) tasdiqlandi.

Adliya vazirligi tomonidan **22.04.2024** yilda 4426-UZB (COL)-son qarz bitimiga huquqiy xulosa taqdim qildi.

Osiyo taraqqiyot banki **25.04.2024** yilda 4426-UZB (COL)-son qarz bitimi kuchga kirganligini ma’lum qildi.

Joriy holati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024** yil **15** apreldagi **PQ-157-son** qarori bilan tasdiqlangan loyiha texnik-iqtisodiy asosi (TIA)ga ko‘ra **2023-2024 yy** - tayyorgarlik davri; **2025-2027 yy** - qurilish ishlarini amalga oshirish davri; **2028-2032 yy** - ekspluatatsiya qilish davri etib belgilangan.

“Sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish” loyihasi **ikkinchi bosqichi** doirasida Xalq deputatlar Jizzax va Sirdaryo viloyatlari Kengashlarining qaroriga muvofiq dastlabki manzilli ro‘yxatlar shakllantirildi. Manzilli ro‘yxatga ko‘ra Jizzax viloyatida **83 km**, Sirdaryo viloyatida **67 km** uzunlikdagi jami **150 km** sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish belgilab olindi.

OTB grant mablag‘lari hisobiga Jizzax va Sirdaryo viloyatlari uchun **DUE DILIGENCE** hisobotlari **OTB** konsultanti Sheladia Inc. (AQSh) xalqaro konsultant kompaniyasi tomonidan tayyorlandi. **OTB** Direktorlar Kengashi tomonidan **DUE DILIGENCE** hisobotlari qabul qilinib, tender jarayonlarini boshlashga rozilik berildi.

1. Texnik nazorat konsalting xizmati:

08.02.2024 yilda loyiha doirasida Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlarida texnik nazoratni amalga oshirish (CSC) bo‘yicha tender savdolari e‘lon qilindi (budjeti 6,7 mln dollar). Qiziqish bildirish bo‘yicha takliflar **13.03.2024** yilda qabul qilindi. **13.03.2024** yil holatiga 11 ta konsalting kompaniya qiziqish bildirish bo‘yicha taklifini taqdim qildi. **18.04.2024** yil Xarid komissiyasi yig‘ilishida "Qisqa ro‘yxat" tasdiqlandi.

17.07.2024 yilda Osiyo taraqqiyot banki “Qisqa ro‘yxat” hamda RFPga rozilik berdi va **18.07.2024** yilda faqat “qisqa ro‘yxat”ga kirgan **mahalliy konsalting** kompaniyalarga tender takliflari taqdim qilishi bo‘yicha so‘rovlar (**RFP**) yuborildi.

07.08.2024 yilda 2 ta mahalliy konsalting kompaniyalar texnik taklifi qabul qilindi.

19.08.2024 yilda mahalliy konsalting kompaniyalar **texnik taklifi hisoboti** Sohaviy xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlandi va OTBga kelishish uchun yuborildi.

26.09.2024 yilda mahalliy konsalting kompaniyalar **texnik taklifi hisobotiga** OTBdan rozilik olindi.

02.10.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi tomonidan mahalliy konsalting kompaniyalar **moliyaviy taklifi hisoboti** ochildi. Hozirda baholash ishlari amalga oshirilmoqda.

2. Subloyiha tayyorlash bo‘yicha konsalting xizmati:

23.01.2024 yilda Subloyihalarni tayyorlash (budjeti 2,35 mln dollar) bo‘yicha **xalqaro konsultantni** tanlash (**SPC**) yuzasidan tender savdolari e‘loni Osiyo taraqqiyot banki (**OTB**) va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi saytlarida joylashtirildi. **01.03.2024** yil holatiga **29** ta konsalting kompaniya qiziqish bildirish bo‘yicha taklifini taqdim qildi. **18.04.2024** yil Xarid komissiyasi yig‘ilishida "Qisqa ro‘yxat" tasdiqlandi.

Baholash hisoboti Sohaviy xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanib, **26.04.2024** yilda Osiyo taraqqiyot bankiga "Qisqa ro‘yxat" hamda RFP kelishish uchun yuborildi. **23.07.2024** yilda Osiyo taraqqiyot banki “Qisqa ro‘yxat” hamda RFPga rozilik berdi. **24.07.2024** yilda “qisqa ro‘yxat”ga kirgan kompaniyalarga tender takliflari taqdim qilishi bo‘yicha so‘rovlar (**RFP**) yuborildi.

09.09.2024 yilda konsalting kompaniyalar texnik taklifi qabul qilindi. Hozirgi kunda texnik takliflarni baholash hisoboti yakunlanib, **02.10.2024** yilda Sohaviy xarid komissiyasi a‘zolariga ko‘rib chiqish uchun yuborildi.

3. Qurilish ishlari:

Sirdaryo viloyati (3 ta lot - jami 17,6 mln doll)

02.02.2024 yilda Sirdaryo (3 ta Lot) viloyati “Qurilish ishlari” (Package 2) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha tender savdolariga e'lon berildi.

18.03.2024 yilda qatnashchilarning texnik takliflari ochildi.

06.06.2024 yilda texnik takliflarni Baholash hisoboti **OTBga** rozilik olish uchun yuborildi.

25.06.2024 yilda OTB Sirdaryo (3 ta Lot) viloyati “Qurilish ishlari” (Package 2) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash yuzasidan texnik takliflarni baholash hisobotiga **“e'tiroz yo'q”** roziligini taqdim qilib, **moliyaviy takliflarni ochishga** rozilik berdi.

01.07.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi yig'ilishida Sirdaryo (3 ta Lot) viloyati “Qurilish ishlari” (Package 2) bo'yicha **moliyaviy takliflar ochildi**.

05.07.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi yig'ilishida Sirdaryo (3 ta Lot) viloyati “Qurilish ishlari” (Package 2) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha moliyaviy takliflarni baholash hisoboti tasdiqlandi va **1-lot** bo'yicha **“Nizomiddin Imkon Servis LLC – Dineshchandra R. Agrawal Infracon Private Limited”** qo'shma korxonasiga shartnomani taqdim qilish tavsiya qilindi.

08.07.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi yig'ilishida tasdiqlangan **Sirdaryo viloyati** “Qurilish ishlari” (Package 2) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha **moliyaviy takliflarni baholash hisoboti** rozilik olish uchun **OTBga** yuborildi.

20.09.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi yig'ilishida tasdiqlangan **Sirdaryo viloyati** “Qurilish ishlari” (SW02) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha **moliyaviy takliflarni baholash hisobotiga OTB** rozilik berdi.

23.09.2024 yilda **“Nizomiddin Imkon Servis LLC – Dineshchandra R. Agrawal Infracon Private Limited”** qo'shma korxonasiga shartnoma tuzish (lot 1) bo'yicha xat yuborildi (*OTB talabiga ko'ra 28 kun muddatda bank kafolati taqdim qilinishi kerak*).

03.10.2024 yilda Sirdaryo viloyati (CW02) bo'yicha **2 ta** qurilish loti (**2 va 3** lotlar) bo'yicha tender ishtirokchilarning malakasi (mahalliy pudratchilar) to'g'ri kelmaganligi sababli, tender savdolari me'zonlari yanada yengillashtirilib, o'zgartirilgan tender hujjatlari OTB ga rozilik olish uchun yuborildi.

Jizzax viloyati (4 ta lot - jami 19,8 mln doll)

02.02.2024 yilda Jizzax (4 ta Lot) viloyati “Qurilish ishlari” (Package 1) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha tender savdolariga e'lon berildi.

18.03.2024 yilda qatnashchilarning texnik takliflari ochildi.

06.06.2024 yilda texnik takliflarni Baholash hisoboti **OTBga** rozilik olish uchun yuborildi.

14.08.2024 yilda OTB tomonidan **Jizzax viloyatida** ichki yo'llarni qurish ishlari yuzasidan pudrat tashkilotni aniqlash bo'yicha **texnik takliflarni baholash hisobotiga** rozilik berildi.

19.08.2024 yilda Jizzax viloyati bo'yicha **moliyaviy takliflar ochildi**.

26.08.2024 yilda moliyaviy takliflar hisoboti Sohaviy xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlandi.

27.08.2024 yilda moliyaviy takliflar hisoboti OTBga kelishish uchun yuborildi.

07.10.2024 yilda Sohaviy xarid komissiyasi yig'ilishida tasdiqlangan **Jizzax viloyati** "Qurilish ishlari" (CW01) bo'yicha pudratchi tashkilotni tanlash bo'yicha **moliyaviy takliflarni baholash hisobotiga OTB** rozilik berdi.

08.10.2024 yilda "Trans Logistik" korxonasiga shartnoma tuzish (lot 1) bo'yicha xat yuborildi (OTB talabiga ko'ra 28 kun muddatda bank kafolati taqdim qilinishi kerak).

07.10.2024 yilda Jizzax viloyati (CW01) bo'yicha **3 ta** qurilish loti (**2, 3** va **4** lotlar) bo'yicha tender ishtirokchilarning malakasi (mahalliy pudratchilar) to'g'ri kelmaganligi sababli, tender savdolari me'zonlari yanada yengillashtirilib, o'zgartirilgan tender hujjatlari OTB ga rozilik olish uchun yuborildi.

Uchinchi bosqichda qurilishi amalga oshiriladigan ichki yo'llarning dastlabki ro'yxati va qiymati shakllantirildi. Unga ko'ra **691 km** uzunlikdagi semnt-beton qoplamali ichki yo'llar quriladi.

Ma'lumot uchun: OTBning talablariga muvofiq **3-bosqich** (11 ta hudud)**da** qurilish ishlariga, loyiha doirasida tender savdolari orqali jalb qilinadigan **Subloyihalarni tayyorlash bo'yicha konsultant** tomonidan **Due Diligence** (Ekologiya ta'siri, Ijtimoiy himoya, Gender rivojlanish) hisobotlari ishlab chiqiladi. Subloyihalarni tayyorlash bo'yicha konsultant ish rejasiga asosan **12 oy davomida** bosqichma-bosqich **Due Diligence** hisobotlari 11 ta hudud uchun tayyorlanib, OTBga rozilik olish uchun yuboriladi. OTB tomonidan **Due Diligence** hisobotlariga rozilik berilganidan so'ng ushbu hududlar bo'yicha qurilish ishlariga tender savdolari o'tkazilishiga ruxsat beriladi.

O'zlashtirish holati:

2024 yil uchun **11,0 mln** doll. prognoz belgilangan.

Yanvar-sentabr oylari yakuni bilan **10,21 mln** doll. o'zlashtirilgan (**127 foiz**, Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan yo'l xaritasiga ko'ra 1-bosqich ishlari bilan birgalikda).